

---

## Keksalari e'zozlangan yurt!

Vazirlar Mahkamasining "Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora tadbirdari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq 2019 yildan boshlab har yili oktyabr oyining birinchi haftasi yurtimizda "Keksalar haftaligi" etib belgilangan.

□ Joriy yilning 3-9 oktyabr kunlari "Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish — xalqimizga xos ezgu fazilat" g'oyasi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida "Keksalar haftaligi" o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur haftalik doirasida tumanimiz bo'ylab, turli ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar, keksa avlod vakillari bilan uchrashuvilar tashkil etilmogda.

Xususan, «Qoshqayron» mahallasida yashovchi bir guruh nuroniylar uchun "Keksalar haftaligi" doirasida Samarqand, Buxoro, Toshkent, Guliston, Jizzax shaharlariga sayohat tashkil etildi.

Sayohat davomida ishtirokchilarga bu hududlarda joylashgan muzeylar va ziyoratgohlar haqida atroficha ma'lumotlar berildi.

Chinakam bayram ruhida o'tgan mazkur sayohat tadbiri nuroniylarda katta taassurot qoldirdi.

2022-10-05 13:24:24